



## MINTAQANING TURIZM SALOHIYATINI BAHOLASH VA RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI

**Gulyamova Gulnora Pataxkamalovna,**  
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi  
"Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi" kafedrasida dotsenti  
E-mail: [ggulyamova@yandex.ru](mailto:ggulyamova@yandex.ru)  
ORCID: 0000000205389508

### DIRECTIONS FOR ASSESSMENT AND DEVELOPMENT OF THE TOURIST POTENTIAL OF THE REGION

**Gulyamova Gulnora Pataxkamalovna,**  
Associate Professor of the Department of "Islamic Economy and Finance, Pilgrimage Tourism".  
International Islamic Academy of Uzbekistan  
E-mail: [ggulyamova@yandex.ru](mailto:ggulyamova@yandex.ru)  
ORCID: 0000000205389508

#### **JEL Classification: L8, L83**

**Annotatsiya.** Maqolada mintaqalar va destinatsiyalar turistik salohiyati tushunchasiga ta'rif berilgan va uning elementlari ajratib ko'rsatilgan. Turli mualliflarning turizm salohiyati tushunchasiga yondashuvlari tahlil etilib, turistik salohiyatga baho berish uslublari umumlashtirilgan. Mamlakatning turli mintaqalarida turizmni rivojlantirish dasturlarini ishlashda ularning turistik salohiyatiga baho berish, bunda har bir hudud va mintaqaning o'ziga xos turistik resurslari, mintaqada turizm sektorining rivojlanish darajasi hamda yo'nalishini hisobga olgan holda alohida ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiqligi ko'rsatib o'tilgan. O'zbekistonda ham pandemiyadan keyingi davrda turizmni tiklash va rivojlantirish maqsadida sohaga investitsiyalar jalb etish, yangi ish o'rinlari yaratish, kadrlar salohiyatini oshirish, pirovardida, turizmni iqtisodiyotning lokomotiv sohaslaridan biriga aylantirish masalasi tahlil etilgan.

**Abstract.** The article defines the concept of tourism potential of a region and destination and highlights its elements. The approaches of different authors to the

concept of tourism potential are analyzed, and methods for assessing tourism potential are generalized. It is emphasized that in order to develop programs for the development of tourism in various regions of the country, it is necessary to assess the tourism potential, at the same time, it is advisable to use a system of indicators taking into account the specifics of the tourism resources of each region, the level and direction of development of the tourism sector of the region. The issues of attracting investment in the industry, creating new jobs, increasing human resources and, ultimately, transforming tourism into one of the locomotive sectors of the economy of Uzbekistan are analyzed.

**Kalit so'zlar:** turizm, salohiyat, mintaqa turizm salohiyati, destinatsiya, turizmni rivojlantirish strategiyasi, tabiiy sharoit va resurslar, madaniy va tarixiy resurslar, iqtisodiy salohiyat.

**Keywords:** tourism, potential, regional tourism potential, destination, tourism development strategy, natural conditions and resources, cultural and historical resources, economic potential.

**Kirish.** Hozirgi davrda turizm sektori jahon iqtisodiyotining muhim sohasiga aylangan bo'lib, u butun jahon xo'jaligi va alohida mintaqa hamda mamlakatlar iqtisodiyotiga salmoqli ta'sir ko'rsatadi. Ba'zi mamlakatlarda turizm sohasi valyuta tushumlarining asosiy manbai bo'lib, aholining turmush farovonligini ta'minlash uchun xizmat qiladi. COVID-19 pandemiyasidan avvalgi davrda Jahon turistik tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, 2019 yilda turizm industriyasi hissasiga jahon YaIMning 10,3 %, jahon eksportining 7%, xizmatlar eksportining 27,4%, kapital qo'yilmalarining 9%, iste'mol xarajatlarining 11%, soliq tushumlarining 5%dan ziyodi to'g'ri kelgan, turizm sektori aholi bandligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, pandemiyagacha bo'lgan davrda iqtisodiyotda band bo'lgan har 11 kishining bittasi shu sohada faoliyat ko'rsatgan [1].

Shuni ta'kidlash zarurki, xalqaro turizm COVID-19 pandemiyasidan eng katta zarar ko'rgan sohalardan biridir. 2020 yilda turizmning jahon YaIMdagi ulushi 50,4 % yoki 4,8 trln. dollarga qisqarib, 5,3 %ni tashkil etdi, taqqoslash uchun jahon iqtisodiyoti qisqarishi 3,3 %ga teng bo'ldi. Bu davrda sohada band bo'lganlarning 18,2 foizi yoki 62 mln. kishi ishdan ketishga majbur bo'ldi, Jahon sayohat va turizm kengashi (WTTC) ma'lumotlariga ko'ra, 2020 yilda turistlarning mamlakat ichida sayohat uchun xarajatlari 45%ga, xorij safarlariga sarflagan xarajatlari esa deyarli 70%ga kamaydi. 2021-2022 yillar xalqaro turizm tashkiloti davri bo'ldi, 2022 yilda turizm industriyasi mahsuloti 2021 yilga nisbatan 22 %ga ortib, jahon yalpi mahsulotining 7,6%ni tashkil etdi, taqqoslash uchun jahon yalpi mahsuloti bu davrda 3,5 %ga o'sganligini ta'kidlash zarur [2]. Bunday o'sish sur'atlari pandemiya inqiroziga qaramay, turizmning jahon iqtisodiyoti va eksportida muhim o'rin egallab

kelayotganini ifodalaydi. Shu sababli ham hozirgi davrda xalqaro turizm bozorida munosib o'rin egallash, to'lov qobiliyatiga ega bo'lgan talab, investitsiyalar, mehnat va boshqa resurslarga ega bo'lish uchun mamlakatlar, hududlar, tarmoqlar va ishlab chiqaruvchilar o'rtasida raqobat kurashi doimo kuchayib boradi.

O'zbekistonda ham pandemiyadan keyingi davrda turizmni tiklash, sohaga investitsiyalar jalb etish, yangi ish o'rinlari yaratish, kadrlar salohiyatini oshirish, pirovardida, turizmni iqtisodiyotning lokomotiv sohalaridan biriga aylantirish masalasi bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan sanaladi. Mamlakatimizda qabul qilingan "O'zbekiston - 2030" strategiyasida xorijiy turistlar sonini 15 millionga, ichki sayyohlar sonini 25 millionga, ziyorat turizmi bo'yicha keladigan turistlar sonini 3 million nafarga oshirish, xususiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga 30 ta yirik turizm klasterlarini tashkil etish, turizm xizmatlari eksportini 5 milliard dollarga yetkazish maqsadi qo'yilgan [3]. Bu boradagi vazifalarni amalga oshirishda mamlakat turizm salohiyatini to'g'ri baholash va uni rivojlantirish muammolarini o'rganish dolzarb masala bo'lib qoladi.

**Material va metod.** Turistik mintaqalar va destinasiyalar salohiyatini o'rganish va baholash masalalari doimo mutaxassislarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Xorijiy mualliflarning katta qismi mintaqaning turizm salohiyatiga ma'lum bir hududda turistik faoliyatni tashkil etish uchun zarur bo'lgan tabiiy, tarixiy va madaniy ob'ektlar va hodisalar, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik shart-sharoitlar majmuidan iborat deb ta'rif bergan. Jumladan, T.A.Yudina, S.A.Grigoryan, [4] N.V.Sycheva, [5] I.A.Tachkovalarning [6] ishlarida turizm salohiyati uni rivojlantirish uchun zarur resurslar va ularni qo'llash imkoniyatlari, ya'ni erishilgan va mumkin bo'lgan imkoniyatlarni o'z ichiga olishi

ta'kidlanadi. Ilmiy adabiyotlarda, shuningdek, hududning turistik salohiyatini baholash usullari ham bayon qilingan, masalan, A.V.Drozov, Ye.Yu.Kolbovskiy, Yu.A.Xudenkij, Ye.N.Karachevskayalarning ishlarida turizm salohiyatini baholash uslubiy jihatdan bir-biridan juda farq qiluvchi va tahlil ob'ektlariga nisbatan turli xil qo'llash usuliga bo'lgan ko'plab yondashuvlar taklif etilgan [7].

A.B.Usmanova, M.I.Zokirovalarning fikriga ko'ra, mintaqaning turistik salohiyatini baholashni bitta usul yordamida amalga oshirish mumkin emas, chunki har bir mintaqaning boshqa hech bir yo'nalishda uchramaydigan salohiyati va o'ziga xos xususiyati bor, shu sababli ham har bir mintaqaga uchun sub'ektiv o'lchov bo'lishi kerak [8].

Ya.V Pechinskaya tomonidan mintaqaning salohiyatini baholashning mavjud yondashuvlari tahlil qilinib, turizm va innovasion faoliyatning asosiy jihatlari va munosabatlarini hisobga oladigan, resurs bazasini aniqlaydigan mintaqaning innovasion va turizm salohiyati strukturasi shakllantirishning konseptual modeli taklif etilgan [9].

S.K Katler, S.Doerti, B.Karmaykllar turizm salohiyatini baholashda tajribani tanlash metodidan foydalanish masalalarini yoritib berganlar. Bu tadqiqotlar mazkur tadqiqot yo'nalishi tahlilini yanada chuqurlashtirish hamda yangi amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish uchun kerakli zamin tayyorlangan [10].

Tadqiqotning nazariy asosini turizm va rekresiya, sayyohlik hududlari va mintaqalari, turizm resurslari, turistik mintaqaga salohiyati, turistik mintaqaga va destinasiyalar salohiyatini baholash uslublari masalalarini o'rgangan mahalliy va xorijiy mualliflarning ilmiy ishlari tashkil etadi. Tadqiqot davomida monografik tadqiqot,

statistik va tizimli tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning axborot va empirik bazasini O'zbekiston Respublikasining turizmni rivojlantirish va mamlakatda raqamli iqtisodiyotni shakllantirish bo'yicha me'yoriy-huquqiy xujjatlari, Jahon turizm tashkiloti (UNWTO), Jahon turizm va sayohat kengashi (WTTC), O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, turistik bozor ishtirokchilarining internet saytlari tashkil etgan.

**Natijalar.** Mintaqa yoki destinasiyaning turizm eksport salohiyati tushunchasining mohiyatini tahlil etish avvalom "salohiyat" tushunchasining mohiyatini aniqlab olish zarur. Odatda, salohiyat mavjud resurslar va ularni qo'llash imkoniyatlarini, ya'ni erishilgan va mumkin bo'lgan imkoniyatlar tushuniladi. Bu ma'noda salohiyat tushunchasiga ta'rif berishda uning ikki tomonini ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- birinchidan, salohiyat – bu bir holatdan ikkinchi, mukammal holatga o'tish imkoniyati, o'zgarish faoliyatidir;

- ikkinchidan salohiyatni sifat o'zgarishlar uchun zarur resurslar majmui sifatida tushunish mumkin.

Salohiyat atamasining iqtisodiy tizimlarga nisbatan iqtisodiy kategoriya sifatida ishlatilishi iqtisodiy salohiyat tushunchasining paydo bo'lishiga olib keldi. Birinchi marta iqtisodiy salohiyat tushunchasi XX asrning 70-80-yillarida ishlatila boshlandi.

Iqtisodiy salohiyat tushunchasiga bir qator iqtisodchilar resurs nuqtai nazaridan ta'rif berib - iqtisodiy salohiyat tovar ishlab chiqarishni kengaytirish uchun zarur bo'luvchi ishlab chiqarish omillari majmui deb ta'kidlaganlar. Bunday nuqtai nazarni B.A.Rayzberg [11], A.I.Samoukin [12], N.Crafts [13], P.N.Gxauri [14] va boshqalar qo'llab-quvvatlaydilar.

O'zbekistonlik iqtisodchilar tomonidan ham iqtisodiy salohiyat tarkibini ta'riflashda ikkita metodologik yondashuv taklif etiladi. Birinchidan bunda milliy iqtisodiyot ega bo'lgan resurslarni baholash nazarda tutilsa, ikkinchidan xo'jalik oborotiga jalb etilayotgan barcha resurslarni qo'llash jarayonida ehtimol tutilgan iqtisodiy natijani aniqlash ang'lanadi [15]. Shuningdek, iqtisodiy salohiyatning mazmunini ochib berishda ushbu masala «iqtisodiy salohiyat» tushunchasi bilan uzviy bog'liq bo'lgan iqtisodiy resurs, imkoniyat, zahira, sharoit, vosita kabi tushunchalarning nisbatini aniqlash orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiqligi ta'kidlanadi [16].

Mintaqa turistik salohiyatini tasniflashda iqtisodiy salohiyat tushunchasidan kelib chiqqan holatda, jarayon va resurs yondashuvlariga asoslanilgan holda ta'rif berish mumkin. Bizning fikrimizcha, mintaqa va destinatsiyalarning turistik salohiyatiga jarayon sifatida qarash mumkin bo'lib, u mamlakat, mintaqa va destinatsiyaning turistlarni qabul qilish va ularga sifatli xizmat ko'satish imkoniyatini belgilaydi. Resurs nuqtai nazaridan qaralganda, mintaqaning turistik salohiyati turistlarni jalb qila oladigan tabiiy, madaniy, tarixiy, iqtisodiy va boshqa resurslarning yig'indisini ifodalaydi.

Hududning turizm salohiyatini baholash turizmni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish, sarmoyalarni jalb etish va turizm sohasini barqaror rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishda muhim ahamiyatga ega. I. Ye Polyakovaning ta'kidlashicha, "turizm salohiyatini har tomonlama baholash iqtisodiy usullardan foydalangan holda amalga oshirilishi kerak". Muallifning fikriga ko'ra, salohiyatning miqdoriy ifodasi ma'lum bir hududda atrof-muhitga, aholiga, madaniy va tarixiy obidalariga, dam olish sifatiga, shuningdek, mamlakat iqtisodiyotining boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga zarar

yetkazmasdan joylashtirilgan turistlarning soni bo'lishi mumkin [17].

**Munozara.** Bizning fikrimizcha, mintaqaning turistik salohiyatini baholash murakkab jarayon bo'lib, u hududning turistlar uchun jozibadorligiga ta'sir qiluvchi turli jihatlarni tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Jumladan, mintaqaning turizm salohiyatini baholashda quyidagilarga e'tibor berish zarur:

- mintaqaning tabiiy sharoiti va resurslari; bu ko'rsatkichlarga baho berganda quyidagilar hisobga olinishi zarur - landshaftlarning xilma-xilligi va estetikasi, hayvonlar va o'simliklarning xilma-xilligi, o'rmon qoplami, balchiq, mineral suvlar bilan davolash manbalarining mavjudligi, g'orlar, noyob yovvoyi meva va rezavorlar, yirik daryolar va irmoqlari, qo'riqxonalar, milliy bog'lar, botanika bog'lari, hayvonot bog'lari, tabiat yodgorliklari, qo'riqlanadigan hududlarda rekreatsiya tadbirlarini tashkil etish darajasi.

- madaniy va tarixiy resurslarni baholash ko'rsatkichlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: shaharsozlik va arxitektura yodgorliklari, tarix, arxeologiya, san'at, mintaqadagi taniqli shaxslar hayoti bilan bog'liq madaniy meros ob'ektlari, an'anaviy madaniyat ob'ektlari, amaliy markazlarning mavjudligi;

- turistik infratuzilma bilan ta'minlanganlikni baholashda 3-5 yulduzli mehmonxonalar yetarliligi, toifasiz turar joy, umumiy ovqatlanish korxonalarining yetarliligi, sport inshootlarining mavjudligi, ko'ngilochar ob'ektlar, davolash-sog'lomlashtirish maskanlari, savdo markazlari, aeroportlarning mavjudligi, vokzallar, avtovokzallar mavjudligi, transport turlarining xilma-xilligi, sayyohlik markazlarining xalqaro aeroport, vokzal, avtovokzalga yaqinligi, turizm bozori ishtirokchilarining xorijiy tillarni bilishi va boshqa ko'plab parametrlar hisobga olinishi kerak;

- Turizmning axborot ta'minoti va xavfsizligi bo'yicha baholashda uyali aloqa operatorlari tomonidan taqdim etilayotgan xizmatlar sifati, mobil Internet mavjudligi, bepul Wi-Fi ulanish nuqtalarining mavjudligi, sayyohlik kompaniyalari uchun ishlab chiqilgan veb-saytlar mavjudligini, shu jumladan turizm uchun moslashtirilgan veb-saytlarning mavjudligi mobil qurilmalar, plastik kartochkalar bilan to'lovlar mavjudligi, elektron qo'llanmalar mavjudligi va ularning keng foydalanuvchilar doirasi uchun ochiqligi, turistik axborot markazlarining mavjudligi, turistik belgilar mavjudligi kabi ko'rsatkichlar hisobga olinadi;

- mintaqada turistlar xavfsizligi va salomatligiga tahdid qiluvchi omillar, bularga suzish uchun yaroqli suv havzalaridagi suv sifati, ichish uchun yaroqli suv sifati, havo sifati, xavfli tabiat hodisalari ehtimoli, xavfli va zaharli hasharotlar va hayvonlarning, shu jumladan xavfli kasalliklar tashuvchilarning, zaharli o'simliklarning mavjudligi.

Albatta bu omillarni hisobga olgan holda mintaqa va destinatsiyalarning turistik salohiyatiga baho berish yaxshi natija beradi. Shu bilan birga, turizm sohasida ba'zi ma'lumotlarni baholashda aniq raqamli ma'lumotlar raqamlarni olish mumkin bo'lmaganligi sababli, bu usulni turizmning resurs salohiyatiga baho berishda qo'llash jarayonida ekspert baholash usullaridan ham foydalanishni taqozo etadi.

Mintaqaning turistik salohiyatiga baho berishda unga ta'sir etuvchi omillarga ekspertlar tomonidan ballar beriladi. Bu ballar asosida har bir mintaqaning erishgan salohiyatiga baho beriladi, mintaqa turizm salohiyati darajasini umumiy baholash quyidagicha amalga oshiriladi:

- har bir mezonga muayyan ball qiymatini belgilash asosida aniqlangan muayyan mezonni baholash.

- olingan ballarning umumiy sonini baholash mezonlari bo'yicha eng yuqori ball soniga nisbati sifatida hisoblangan turizm salohiyatini baholash.

Mintaqaning turistik salohiyati quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$T_b = \sum_{n=1}^n = \frac{A_1 + A_2 + \dots + A_n}{n * 5}$$

Bu yerda:

$T_b$  - turizm salohiyati bahosi

$A_{i...n}$  - mezon bo'yicha olingan ballar

$N$  - baholangan mezonlar miqdori.

Ushbu metod yordamida turizm salohiyatini baholash juda keng qo'llanilishiga qaramay, uning mukammal emasligini ta'kidlash kerak. Jumladan, ba'zi ijtimoiy va institutsional jihatlar bu metodda hisobga olinmaydi. Bunga bog'liq holda ba'zi mualliflar turistik salohiyat elementlariga ta'rif berishda uni bir necha qismlarga ajratishadi. Jumladan, turizm salohiyatini ikki guruh - ichki salohiyat va tashqi salohiyatga ajratishadi [18]. Ichki salohiyat mintaqaning resurs salohiyati (tarixiy-madaniy, rekreatsiya-tabiiy, ekologik); iqtisodiy salohiyat (turizm xizmatlari ko'rsatishning maksimal mumkin

bo'lgan hajmi); ma'muriy, yoki tashkiliy salohiyat (turizm rivojlanishini ta'minlash bo'yicha davlat siyosati)dan iborat [20].

Tashqi salohiyat innovatsiya salohiyati, axborot salohiyati, demografik salohiyat, ijtimoiy salohiyat kabi elementlarini o'z ichiga oladi. Shunday qilib, turizm salohiyati mintaqaviy turizmni rivojlantirish uchun ham resurs, ham zaxiradir, degan xulosaga kelish mumkin [19]. Bundan tashqari, mintaqaning turistik salohiyatini baholashni bitta usul yordamida amalga oshirish mumkin emas, chunki har bir mintaqaning boshqa hech bir yo'nalishda uchramaydigan salohiyati va o'ziga xos xususiyati bor, shu sababli ham har bir mintaqa uchun alohida ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish zarur.

**Xulosa.** Bugungi kunda O'zbekistonda pandemiyadan keyingi davrda turizmni tiklash, sohaga investitsiyalarni jalb qilish, yangi ish o'rinlari yaratish, kadrlar salohiyatini oshirish va pirovardida turizmni iqtisodiyotning lokomotiv tarmoqlaridan biriga aylantirish dolzarb vazifalardandir. O'zbekiston turizmning turli turlarini rivojlantirish uchun yuqori salohiyatga ega. Shu bilan birga mamlakatning turli mintaqalarida turizmni rivojlantirish dasturlarini ishlashda ularning mavjud

turistik salohiyatiga baho berish maqsadga muvofiq. Bu borada amalga oshirilgan tadqiqotlarni o'rganish va umumlashtirish asosida turizm salog'iyatiga baho berish uslubi taklif qilingan bo'lsada, ushbu uslubdan foydalanganda har bir hudud va mintaqaning o'ziga xos turistik resurslari, mintaqada turizm sektorining rivojlanish darajasi hamda yo'nalishini hisobga olgan holda har bir mintaqaga uchun alohida ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. UNWTO Tourism Recovery Tracker. Murojaat sanasi: 20 dekabr 2023 y. UNWTO: <https://www.unwto.org/tourism-data/global-and-regional-tourism-performance>.
2. Yeconomic Impact 2022: Global trends. World Travel&Tourism Council. R. 5-7.
3. «Ўзбекистон - 2030» стратегияси. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги ПФ-158-сон Фармони.
4. Юдина Т. А., Григорян Ц. А. Туристический потенциал региона: оценка и эффективное управление //Теоретическая экономика. – 2019. – №. 1 (49). – С. 78-83.
5. Сычева Н. В. Туристский ресурс как фактор экономического развития региона //Вестник Оренбургского государственного университета. – 2011. – №. 8 (127). – С. 136-143.
6. Тачкова И. А., Хохлова А. В. Резервы развития туристического потенциала региона в современных экономических условиях //Экономика. Социология. Право. – 2018. – №. 2 (10). – С. 48-53.
7. Власов, М. Концептуальная модель оценки величины интегрального потенциала туристского бизнеса крупного города// Вестник ИНЖЭКОНА. – 2010. – № 7. – С. 98-104.
8. Usmanova A.B., Zokirova M.I. (2021). TOURIST POTENTIAL OF THE BUKHARA REGION. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions, 2(04), 243–246. Retrieved from <https://reserchjet.academiascience.org/index.php/rjai/article/view/93>
9. Печинская Я.В. Обоснование системы показателей инновационно-туристического потенциала региона// Мир спорта №1 (90) – 2023. – 117-121-б.
10. Cutler S. Q., Doherty S., Carmichael B. The uexperience sampling method: uexamining its use and potential in tourist uexperience research // Current Issues in Tourism.-2018.-Vo. 21 (9). - P.1052-1074. - DOI: 10.1080/13683500.2015.1131670
11. Райзберг Б. А. Современный экономический словарь / Б. А. Райзберг, Л. Ш. Лозовский, Е. Б. Стародубцева. - М.:ИНФРА-М, 2012. - 512 с.;
12. Самоукин А. И. Потенциал нематериального производства. - М.: Знание, 2001. - 148 с.;
13. Crafts N. Is Slow Yeconomic Growth the ‘New Normal’ for Yeurope? // Atlantic Yeconomic Journal. - 2017. Vol. 45. - No. 3. - P. 283-297;
14. Ghauri P. N. Multinational Yenterprises and Sustainable Development in Yemerging Markets // J.-S. Bergé yet al. (Eds.).Global Phenomena and Social Sciences. - Cham: Springer, 2018.- 147 p.– P. 21–36.
15. Astanakulov O. T. et al. National projects and government programmes: functional algorithm for evaluating and modelling using the Data Science methodology //Економічний часопис-XXI. – 2020. – Т. 183. – №. 5-6. – С. 51-59.

16. Юсупов Б.А. Ўзбекистонда кичик бизнес иқтисодий салоҳиятидан фойдаланиш механизмларини такомиллаштириш. Иқтисодийёт фанлари бўйича фалсафа доктори (ПхД) диссертацияси автореферати. Т. – 2020. 13-б.

17. Полякова И. Е., Иванова Р. М., Скроботова О. В. Методика оценки туристского потенциала региона. На примере Липецкой области // Успехи современной науки. - 2016. - № 8. - С. 41-44.

18. Лысенко Н.Н. Совершенствование оценки потенциала туристского комплекса (на примере Сахалинской области)./авт. дисс. на соиск. ученой степени к.э.н. Хабаровск - 2019. - С.17-18.

19. Abdurakhmanova G. K. et al. TOURISM 4.0: OPPORTUNITIES FOR APPLYING INDUSTRY 4.0 TECHNOLOGIES IN TOURISM //Proceedings of the 6th International Conference on Future Networks & Distributed Systems. – 2022. – С. 33-38.

20. Астанакулов О. Т., Шеина Е. Г. Формирование методического инструментария анализа и оценки эффективности инвестиционных проектов //Национальные интересы: приоритеты и безопасность. – 2020. – Т. 16. – №. 10. – С. 1900-1920.